

ERKIN A'ZAM SATIRASI (“Fideldan salom” va “Manzuma otin” hikoyalari misolida)

Ubaydullayeva Jamila Xurramovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Ko'charova Dildora Karim

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim va sport
tarbiyaviy ishi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda Erkin A'zamning ikki hikoyasi – “Fideldan salom” va “Manzuma otin”lar yuzasidan tahlil olib borildi. Unda adabining dunyoqarashi, qahramon tanlash mahorati haqida fikr yuritildi. Hikoyalar orqali ijodkor o'z o'quvchisi oldiga qanday savollar qo'yimoqchi bo'lganligi ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: Fidel Kastro, Baxtiyor, salom, otin, Muboshir, mulla ota, tarbiya.

Ijodkor Erkin A'zamning qaysi asarini o'qimaylik, unda xalq hayoti, jamiyat taqdiri uchun kuyunish, hamdardlik hissi bor. Bu hamdardlikni u ba'zan yengil kulish bilan ifodalasa, ba'zan kinoya bilan asarlarida aks ettiradi. Adib qahramonlariga qarar ekanmiz, uning qahramonlari oddiy xalq orasidan chiqqan insonlar. Ularning turish-turmush tarzi ham el qatori. Shu bilan birga ularning hech kimnikiga o'xshamas dunyolari bor, xarakterlari bor.

Muallifning “Fideldan salom” nomli hikoyasini mutolaa qilar ekanmiz sodda o'zbek otaxonining tabiatidan, uning soddaligidan, uning omma ortidan ergashib, o'zi bilmagan, tanimagan kishisiga ixlosidan na kula olasiz, na yig'lay olasiz. Soppa-sog' yurgan, yuz yoshga kirishni niyat qilgan chol dabdurustdan barcha avlodini to'plashni buyuradi. Keksa kishining bunday chaqirig'idan maqad aniq – vidolashuv. Otaxonning kasaliga sabab esa Kuba hukumatining Prezidenti Fidel Kastroning vafoti. Fidelday odam ketgan dunyoda otaxonimiz ham yashagisi kelmaydi. Hikoya qahramonning katta o'g'li Baxtiyor “Ozodlik oroli”ning dohiysi bilan xizmat safarida yurgan kezlari, tasodif tufayli uchrashib qoladi. Shunda u askar yigitning qayerdanligini surishtiradi otasi bor yo'qligini, otasining yoshini so'raydi. Otasining yoshini eshitgach otasi bilan tengdoshligini aytadi va ketar vaqti otasiga salom yo'llaydi. Shundan so'ng salomni qabul qilgan otaxon Fidelga o'zgacha ixlos qo'yadilar. “Shu-shu bobomiz Fidel Kastroga tengdoshgina emas, baayni safdosh bo'ldi-qoldi. Uncha-muncha odmiroq odam duch kelganida, “Anuv Kubaning podshosi bor-ku, soqolli, zo'r o'sha bilan bir kunda (“bir yilda”si qolib) tug'ilganmiz! – deya shishinib ketardi. –Bizga salom ham yuborib turadi. Ishonmasangiz, ana, Baxtiyordan so'rang”. Shu gap bilan yo'q guvohni topmoqchidek yon-veriga qidirinib ham qarardi”.¹

Yuqorida aytganimizdek, otaxon juda sodda va maqtovlarga uchib bor-budini o'rtaga qo'yadigan odamlar toifasidan bo'lganligidan Alloh bergan umrini to'la yashamasdan avval, hayotga etak silkimoqqa tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Katta o'g'li kelib otasiga qilgan nasihatlaridan so'nggina o'rnidan turib Allohning uyi tomon yuzlanadi: “Dada! – deganmish. – Fidel, Fidel deysiz, uni siz emas men ko'rganman-ku! Fideldan salomni men olib kelganman-ku, sizga. Fidel o'lgan bo'lsa o'lgandir. U axir inqilob qildi, xalqini ozodlikka olib chiqdi, hammangni baxtli qilaman deb laqillatib ellik yil qimirlamay taxtda o'tirdi! Oqibati mana –

¹ Erkin A'zam “Yozuvchining bog'i” Yangi asr hikoyalari va eski asrdan bir esdalik. Tosh. “MASHHUR-PRESS” 196-bet

xalqi qaqshab, qashshoqlikda yotibdi! Shuncha savdodan keyin o‘lmay nima qilsin odam?! Lekin sizga nima ekan?!” Chol yotgan joyida bir nafas unga tikilib qarabdi-da, “He pad-daringga!...” deya asta to‘shagidan qo‘zg‘alibdi, devordagi qizi dazmollab qo‘ygan ohorli yaktakni egniga ilib, chiqib ketibdi. Baxtiyor izidan poylab borsa, machitga kirib ketganmish...”² Ana shundan keyingina otaxon Alloh bergan umrning qadrini anglab Allohning uyiga qadam ranjida qildilar. Allohning har bir ishida bir hikmat bor. Otaxon ham Fidelning vafot etgani tufayli o‘limni eslagan bo‘lsalar, o‘g‘lining gaplari bilan Allohni esladilar, Uning oldiga borganda huzurida qanday javob berishlarini o‘ylab, masjid tomon yo‘l soldilar. Bir so‘z bilan aytganda inson o‘zi bilmagan, ko‘rmagan odamlarga qattiq mehr qo‘yib, u uchun hayotdan ham kechib yuborishi satirik kulgu ostiga olingan.

Muallifning boshqalariga o‘xshamaydigan, hajman kichik, ammo juda mazmundor hikoyalaridan yana biri “Manzuma otin”dir. Asarda hikoyachi yigit sigaret olish uchun to‘xtashganida, sotuvchilar orsidan ziyolinamo bir ayol uning diqqatini tortadi va uning Manzuma otin ekanligini eslab qoladi. U bir paytlar hikoya qilib beruvchining maktabida fransuz tilidan dars bergan ustoz edi. Manzuma opani otin deyishlariga sabab u taqvodor mulla Uzoqning qizi edi. Opamiz yoshliklarida Qur’onni xatm qilganlar. Keyinchalik shaharga o‘qishga kirib qishloqqa shaharning ajib modalarini ham shu opamiz olib keldilar. “Fransuz tili muallimasi kelgach maktabimiz hayotida ko‘rilgan o‘zgarishni gapirsak, o‘quvchi qizlar-u o‘qituvchi juvonlar endi kalta-kalta libos kiya boshladi, “Laylak uya” soch turmaklari, yengsiz ko‘ylaklaru bigiz poshnali tuffilar rasm bo‘ldi”.³ Muallimaga “shahar ko‘rgan echki” qabilida qaragan qishloq erkaklari uylanmagach, otasining qistovi bilan qo‘shni qishloqlik bir erkakka ikkinchi xotin bo‘lib turmushga chiqadi. Muallimaning ismi asli arabcha bo‘lib, “tartibli, intizomli, kelishgan, zebo qiz” degan ma’nolarni anglatadi. Uning o‘sha eridan orttirgan yagona erkasi – Muboshir ismli o‘g‘li bor. Nomigagina er bo‘lib yurgan o‘sha “kuyov” muallimani kasbdoshi nemis tili o‘qituvchisi “Xendi xox” laqabli Turdiyev bilan ishqiy aloqasi bor deb ayblab, butun qishloq oldida ayolni sharmanda qiladi.

Shundan keyin Manzuma opa o‘g‘lini olib qayerlargadir ketadi. Muboshir ismi ham asli arabcha bo‘lib, “yo‘lboshchi, yo‘l ko‘rsatuvchi” degan ma’nolarni anglatadi. Oradan yillar o‘tib eski ustozining o‘g‘li Muboshirni hikoyachimiz uchratib qoladi. Uning haqiqatda yo‘lboshchi, tadbirkor yigit bo‘lib ulg‘ayganiga guvoh bo‘ladi. O‘sha suhbat chog‘ida hikoya qilib beruvchi Muboshirdan onasi haqida so‘raydi. Uning bergan javobidan ancha norozi bo‘lgan hikoyachi Manzuma opani yo‘lda uchratgach ichidan nimalar o‘tdi ekan. O‘sha suhbat mana bunday tarzda kechgan edi: “Rasmiy tantanadan keyingi undan-da tantanalibroq ziyofat chog‘i “kattalar” davrasini hukmiga solib o‘tirgan qarshimdagi arbobsifat kishi ko‘zimga issiq ko‘rindi. Qarang, Muboshirimiz ekan. Eski hamguzarlar qaytadan tanishdik, uni-buni esladik. Gap orasida onasini so‘radim. “Kim? Kimni Aytyapsiz?” dedi u peshonasini tirishtirib. “Manzuma opa, muallimimiz”, dedim yon-verimizdagi g‘ala-g‘ovurni bosmoqqa tirishib. Muboshir sovuqqina qilib qo‘sh kaftini yuziga tortib qo‘ydi. “Iye qachon?” deb so‘radim shoshib-ajablanib. “E ko‘p bo‘ldi”, dedi-da, orqasida shay turgan shotirlariga o‘g‘rilib, allaqanday topshiriq bera ketdi”.⁴

² Erkin A‘zam “Yozuvchining bog‘i” Yangi asr hikoyalari va eski asrdan bir esdalik. Tosh.”MASHHUR-PRESS” 198-bet

³ Erkin A‘zam “Yozuvchining bog‘i” Yangi asr hikoyalari va eski asrdan bir esdalik. Tosh.”MASHHUR-PRESS” 171-bet

⁴ Erkin A‘zam “Yozuvchining bog‘i” Yangi asr hikoyalari va eski asrdan bir esdalik. Tosh.”MASHHUR-PRESS” 174-bet

Bu suhbatni o'qigach har bir o'quvchida bir savol tug'ilishi tabiiy: "Bu qanday farzand ediki, o'z onasidan tonib turadi, tirik yashab yurgan onasi haqida gapirishga or qilib uni o'ldiga chiqaradi?" Ha u mansab, boyluk topibdi, ammo aql topmabdi. Manzuma otin unga hamma narsa qilib beribdi-yu, ammo Alloh buyurgan to'g'ri yo'lni tanitolmabdi. Axir bir vaqtlar otasi mulla Uzoq unga haq yo'lni ko'rsatib qoriya darajasiga yetkazib tarbiya bergan emasmi?! Hikoya so'ngida bir og'ir mulohaza xayolga keladi: otinlik maqomiga yeta turib ham o'qigan va bilganlariga amal qilmay, Alloh buyruqlarga itoat etmay yashagan Manzuma otinga bu noqobil farzand jazo qilib berilmadimi? Axir butun hayotini bag'ishlagani, bor umidi yolg'iz shu farzandi edi –ku! Hikoyani o'qib ko'plab savollar berib, ularga javob axtarib o'yga cho'madi kishi. Hikoyalarda oddiy hayotiy hodisalar tasvirlansa-da kishini mulohaza qilishga majbur qiladi, voqealarni beparvo, o'qib ketolmaysiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Erkin A'zam "Yozuvchining bog'i" Yangi asr hikoyalari va eski asrdan bir esdalik. Tosh."MASHHUR-PRESS" 286 bet
2. Begmatov E. A. "O'zbek ismlari izohi" O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2016-yil 608 bet.